IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON , VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

PROFESSIONAL TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA DAVLAT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Muallif	**Qaxxorova Dilraboxon Kasimovna**
O'qish yoki ish joyi	**Andijon viloyati Jalaquduk tuman 1-son kasb-hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari**
Qabul qilindi	**03.10.2023**
Nashr qilindi	**06.10.2023**

Annotatsiya

Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishda professional ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va chora-tadbirlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan. Shuningdek, sohada korrupsiyani oldini olishda davlat siyosatining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tomonlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar

Korrupsiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, manfaatlar to'qnashuvi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-5618-son Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunni ijrosi to'liq va samarali ta'minlanishi uchun 2017-yil 2-fevralda davlatimiz rahbarining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. 2019-yil 27-mayda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar aholining huquqiy savodxonligini oshirishga va korrupsiyaga qarshi samarali kurashishga xizmat qiladi.

Shulardan kelib chiqib, kelajakda professional ta'lim muassasasi rahbar va mutaxassislarini malakasini oshirish kursi o'quv rejasiga "Huquqiy savodxonlik va korrupsiyaga qarshi kurashish" o'quv moduli kiritiladi.

Professional ta'lim tizimi xodimlarini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda ularga o'zlarining huquqlari va erkinliklari nimalardan iborat ekanligini o'rgatsak va shu orqali ularning o'z burchlariga amal qilishlariga erishsak tizim xodimlarining huquqiy ongi va madaniyati yuksalishiga erishgan bo'lamiz.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi professional ta'lim tizimida ham bugungi kunda korrupsiya illatini oldini olish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Professional ta'lim sohasida korrupsiyani oldini olishning usullaridan biri bu soha xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirishdir. Huquqiy madaniyat jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga bog'liq bo'lgan maxsus ijtimoiy siyosiy voqelikdir. Unda madaniyat va huquq unsurlarini uyg'unlashib kelsa-da, mohiyati, huquqiy madaniyat ijtimoiy siyosiy hayotning, tuzumning buyurtmalarini bajaruvchi tizimdir.

Professional ta'lim tizimi xodimlarini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy masalasidir.

Professional ta'lim muassasasi xodimlarini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda

avvalo ularning o‘z huquq va erkinliklarini bilishlari va majburiyatlariga amal qilishlariga e’tibor qaratish lozim.

Professional ta’lim muassasasi xodimlarini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun bir qator amaliy tadbirlarni o‘tkazish lozim. Jumladan:

- huquqni muhofaza qilish xodimlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, seminar-treninglar o‘tkazish;
- tizim xodimlari o‘rtasida “Siz huquq va majburiyatlaringizni bilasizmi?” mavzusida musobaqalar tashkil etish;
- tizim xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun mahalla instituti bilan hamkorlikdagi ishlarni yanada kuchaytirish;
- PTMda “Huquqiy axborot kuni” loyihasini tashkil etish (bunda hududdagi advokatlar, notariuslar, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqalar tomonidan xodimlarga huquqiy tushuntirishlar berilishini ta’minlab borish);
- PTM hududida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan flaerlar, bukletlar, komikslar va viveskalar o‘rnatish;
- PTMlarda “Huquqiy madaniyat oyligi”, “Odob-axloq oyligi” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” kabi tadbirlarini tashkil qilish lozim.

Shuningdek;

- tizimda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish;
- tizimda korrupsiya va korrupsion holatlarni oldini olish uchun jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida hamkor tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham asosiy vositalardan biri sanaladi.

Professional ta’lim muassasalari korrupqiyani oldini olish va salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Buning uchun quyidagi amaliy ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, Professional ta’lim tizimi mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Ikkinchidan, davlat ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda professional ta’lim muassasalari huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Uchinchidan, Professional ta’lim tizimi mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta’minlash;

To‘rtinchidan, tizimdagi mansabdor shaxslarning va boshqa xodimlarning o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas’uliyatini kuchaytirish;

Beshinchidan, Professional ta’lim muassasalari mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

Oltinchidan, Professional ta’lim muassasasi xodimlarini odob-axloqining yagona prinsiplari

va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

Yettinchidan, tizim xodimlarini shaffof tartibini o‘rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg‘arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish;

Sakkizinchidan, xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta’minot olishini va rag‘batlantirilishini ta’minlash;

To‘qqizinchidan, soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillarni joriy etish;

O‘ninchidan, professional ta’lim muassasalari ichki nazoratining samarali tizimini yaratish zarur.

Shuningdek, Professional ta’lim sohasida korrupsiyani oldini olishda quyidagi usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

– PTMlari rahbar va mutaxassislarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

– tizimda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

– korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish;

– tizimda korrupsiya va korrupsion holatlarni oldini olish uchun jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida hamkor tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

O‘rganishlarimizga ko‘ra manfaatlar to‘qnashuvi natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- xodimlarni ishga qabul qilish;
- bolalarni bog‘chaga qabul qilish;
- bayramlarda sovg‘alar olish;
- mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik;
- imtiyozlar berish;
- adolatsizlik;
- e’tiborsizlik;
- bilimsizlik;
- ma’naviy rag‘batlantirish (ma’lum bir naf evaziga);
- moddiy rag‘batlantirish (ma’lum bir naf evaziga);
- oshxona va omborxonalarni nazorat qilmaslik;
- o‘tilayotgan mashg‘ulotlarni nazorat qilmaslik va hokazolar.

Professional ta’lim muassasalarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, oldini olish va tartibga solish maqsadida “Professional ta’lim muassasalari xodimlarining odob-axloq” qoidalari qabul qilingan.

“Professional ta’lim muassasalari xodimlarining odob-axloq” qoidalarida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanilgan:

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-

ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka, opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka hamda opa-singillari;

urug‘-aymoqchilik – xodimning umumiy ajdodga ega bo‘lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subektiv, iltifotli va noxolis munosabatda bo‘lish shakldagi shaxsiy manfaatini namoyon etilishi;

manfaatlar to‘qnashuvi shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

mahalliychilik – shaxsni faqatgina qarindoshligi (qarindoshni hamma bilishi, maoshxo‘rligi va uning jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilgan) va bunday shaxsning hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan organlardagi qarindoshlarining xizmat mavqeyi sababli lavozimga qo‘yiladigan malaka talablarini hisobga olmasdan ishga yollash, rotatsiya qilish, lavozimga tayinlash;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

nepotizm (tanish-bilishchilik) – o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga g‘ayriqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish yoki ta’sir o‘tkazish, yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, vazirlik tizimi manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

homiylik – yon bosish, qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklida professional ta’limi tizimi xodimini yuqoriroq lavozimdagi xodim tomonidan himoya qilinishi;

potensial manfaatlar to‘qnashuvi – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining yoki vazirlik tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular professional ta’limi tizimi manfaatlariga qarama-qarshi bo‘lishi va tizim xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish – xodimlar tomonidan potensiallik yoki haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e’lon qilish tartib-taomili;

haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi xodimning, uning yaqin qarindoshlarining yoki vazirlik tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) tizim manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo‘lgan vaziyat;

manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish – vazirlik tizimi tomonidan xodimlarining xizmat majburiyatlari lozim darajada bajarilmasligi holati va manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda ularning manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) tizimdagi tuzilma va tashkilotlarning manfaatlaridan ustun kelishi xavfini kamaytirish yoki bartaraf etish;

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi.

Shulardan kelib chiqib, Professional ta’lim tizimida ham kelib chiqishi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan aniq maqsadlarni ko‘zlagan tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad tizim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilikdagi islohotlar bilan tanishtirish, mehnat faoliyatlari davomida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tanishtirish va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan.



WORDLY
KNOWLEDGE